

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 4 (10)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Али Назарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Акрамова Фазилят Артикбаевна ПРОМЫШЛЕННЫЕ КАДРЫ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД: СТАНОВЛЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ	7
2. Karimjonov Jasurbek Muxtorjonovich O‘ZBEKISTONDA TARIXIY SHAXSLAR NOMIDAGI MUKOFOTLAR TA‘SIS ETILISHI: TAQDIRLASH JARAYONLARI	16
3. Кобзева Ольга Петровна АКАДЕМИК Э. В. РТВЕЛАДЗЕ - ЖИЗНЬ, ОТДАННАЯ НАУКЕ	25
4. Ктайбеков Саламат Маманович ВОЗРОЖДЕНИЕ ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ И НОВЫЙ ЭТАП ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА И ЯПОНИИ	34
5. Mamatqulov Bekzod Sherozovich O‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAJRIBA VA NATIJALAR (1925-1991 YILLAR)	45
6. Маматова Махфуза Бахриддиновна ТОРГОВЛЯ ИНДИЙСКИХ ЧАЕВ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX - НАЧАЛА XX ВЕКА)	54
7. Mirzayev Komiljon Mamirjonovich O‘RTA OSIYO ARXELOGIYASI KAFEDRASINING PAYDO BO‘LISHI ZARURIYATLARI	61
8. Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	69
9. Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммед Эшбекович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИ ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРИХЧИЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИ	83
10. Muxamedov Yoqubjon Qodirovich G‘ARBIY TURK XOQONLIGI VA ERON SOSONIYLARI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR	91
11. Нарбеков Абдикамил Вафаевич НАСЕЛЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА В ПЕРИОД НАЦИОНАЛЬНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО РАЗМЕЖЕВАНИЯ В СРЕДНЕЙ АЗИИ	102
12. Назаров Хумоюн Алишерович., Одилова Нилюфар Зоиржон кизи РЕЛИГИОЗНЫЕ ВЕРОВАНИЯ В СЕВЕРНОЙ БАКТРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ КУШАН	116

13. Normurodov Dilmurod Rashidovich IX–XII-ASRLARDAGI TOSHKENT VOHASI (SHOSH-ILOQ)NING SHISHASOZLIGI	132
14. Olimjonov Xabibjon Abduxalim o‘g‘li TURKISTON ASSRDA KUTUBXONA ISHINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI CHORA-TADBIRLAR	147
15. Ochildiyev Fayzulla Bobokulovich O‘RTA OSIYO TEMIR YO‘LINING BUXORO AMIRLIGIGA KIRIB KELISHI VA TEMIR YO‘L BEKATLARINING FAOLIYATI	155
16. Rahmonqulova Zumrad Boyhurozovna O‘RTA OSIYO XONLIKLARI VA USMONIYLAR DAVLATI O‘RTASIDAGI IQTISODIY ALOQALAR TARIXIDAN	168
17. Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич ВКЛАД ВЫПУСКНИКОВ КАФЕДРЫ АРХЕОЛОГИИ В ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ КУЛЬТУРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	178
18. Саипова Камола Давляталиевна УПРАВЛЕНИЕ В ТУРКЕСТАНСКОЙ АСС В ПЕРВЫЕ ГОДЫ СТАНОВЛЕНИЯ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ	184
19. Сиддигов Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР	189
20. Tog‘ayev Jasur Erkinovich QADIMGI DAVR ME‘MORCHILIGI TARIXIY REKONSTRUKSIYASIGA DOIR (JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA)	206
21. Тўхтабоева Дилафрўз Эргашевна ЖАҲОН ШАҲАРЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ КЎРИНИШИ	214
22. Ubaydullayev Ikromjon Farxod o‘g‘li O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI ANTIK DAVLATLARNING TARIXIY UZVIYLIGI VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	219
23. Usarov Umidjon Abdimavlyanovich XIX ASRNING 60–70-YILLARIDA ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O‘LKASIDAGI YER EGALIGI VA MULKCHILIK MUNOSABATLARIGA OID SIYOSATI (Rasmiy amaldorlari va ishchi kommissiya vakillarining faoliyati misolida)	232
24. Холикулова Шахноза Баймахаматовна ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЛК КИМЁ КОРХОНАСИ ТАРИХИ	242
25. Холикулов Ахмад Баймахаматович ВОҲАСИ БЕКЛИКЛАРИНИНГ БУХОРО АМИРЛИГИ СИЁСИЙ ТАРИХИДА ТУТГАН ЎРНИ (XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСРНИНГ БОШЛАРИ)	252

26. Худойкуов Урал Каримович ЖАҲОН ОЗИҚ- ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИНГ УСТУВОРЛИГИ ВА РИМ ДЕКЛАРАЦИЯСИ	260
27. Юнусова Хуршида Эркиновна ЎЗБЕКИСТОН ССР ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИ ҲОЛАТИ ВА МУАММОЛАРИ (XX АСР 70-80 ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА)	268

Karimjonov J. M.

«O'zbekistonning eng yangi tarixi» kafedrası katta o'qituvchi., PhD

O'zbekiston Milliy universiteti

expert0almazniy@gmail.com

O'ZBEKISTONDA TARIXIY SHAXSLAR NOMIDAGI MUKOFOTLAR TA'SIS ETILISHI: TAQDIRLASH JARAYONLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston tarixida muhim o'rin tutgan tarixiy shaxslar nomiga atab ta'sis etilgan mukofotlar, ular bilan taqdirlash jarayonlari, uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan bo'lib, mukofot belgilari, mukofot turlari, taqdirlangan shaxslar statistikasi hamda taqdirlashga doir huquqiy asoslar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, unvon, nishon, fan, madaniyat, san'at, adabiyot, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Abdulla Qodiriy.

KIRISH

O'zbekiston davlat mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng, respublika fuqarolariga jamiyat hayotida qilgan qahramonona xizmatlari, ijtimoiy-iqtisodiy, fan-texnika, adabiyot, san'at, me'morchilik va boshqa sohalarda erishilgan yutuqlarni rag'batlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu borada O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "...istiqlol yillarida jami 29 ming 170 nafar yurtdoshimiz davlatimizning nufuzli mukofotlari bilan taqdirlanganini (2017 yilgacha)" – qayd etib, "albatta, gap faqat mukofotlarning sonida emas balki, bu mukofotlar, avvalo, ona Vatanimizning ravnaqiga beqiyos hissa qo'shib kelayotgan minglab yurtdoshlarimizni munosib taqdirlashga xizmat qilayotgani bilan g'oyat ahamiyatlidir" – deb[1], ta'kidlagan edi.

Mavzuga tegishli adabiyotlarning ko'lami keng bo'lmasada, masalaning ayrim jihatlari yuzasidan ma'lumotlarni dissertatsiya va kitoblarda uchratish mumkin. Umuman olganda mavzuga oid adabiyotlar va tadqiqotlarni ikki guruhga, ya'ni mahalliy tadqiqotlar hamda xorijiy adabiyotlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq.

Mahalliy tadqiqotchilar M.T.Tojiboyev, H.I.Azimov, Z.U.Xaydarov, D.N.Abdullayev, S.Ashurov, J.Bo'ronov, M.Mirzo, V.S.Makarov tomonidan ushbu mavzuga tegishli bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda qadimgi davrdan bugungi kungacha O'zbekistonda mukofotlash tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, Ikkinchi jahon urushida o'zbekistonliklarning jasoratlari haqida to'xtalib, urush yillarida hududlar kesimida turli darajadagi

mukofotlanganlar haqidagi statistik ma'lumotlar, O'zbekiston mustaqilligi sharoitida milliy va ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi hamda rivojlanishi masalalari, Namangan viloyatining sovet va mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixi o'rganilib, aynan ushbu viloyatdan davlat mukofotlari bilan taqdirlanganlar haqida tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari orasida mavzuga oid tadqiqotlar asosan Rossiya Federatsiyasida amalga oshirilgan bo'lib, ular orasida V.Makarov, L.Shevchenko, A.Alpatov, S.Gavrilenkov, A.Xazin, A.Goncharov, S.Ivanov, A.Ilin, O.Rozanov kabilar o'z tadqiqotlarida mukofotlash masalalarini turli davrlar kesimida ko'rsatib o'tishgan.

Mavzu yuzasidan xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli davrlar kesimida ilmiy ishlar va izlanishlar olib borilib, ular turli maqola va adabiyotlarda o'z aksini topgan. Xususan, P.Gajdov tadqiqotida G'arbiy Yevropa davlatlaridagi taqdirlash masalalari, orden so'zining kelib chiqish tarixi, jumladan, dastlabki ordenlar XV asrda tashkil etilganligi, ular asosan yuqori tabaqa vakillariga berilganligi, orden va medallarning qimmatbaho metallardan yasalganligi, ularning shaklidagi farqlar, medallar esa ordendan quyiroyq darajadagi mukofot ekanligi, orden va medallarning urush va tinchlik davrlarida taqdirlashdagi farqlari xususida ma'lumotlar aks ettirilgan.

Portugaliya faleristik akademiyasida faoliyat yuritgan Jose Vicente de Braganca ham o'z ilmiy izlanishlarida orden, medal va tangalar an'anaviy tarzda numizmatika fani tarkibida o'rganilganligi, keyinchalik medalistika, so'ngra esa faleristika fani obyekti bo'lganligi, bu atama lotincha "phalera" so'zidan kelib chiqqanligi, dastlab Qadimgi Rimda asosan harbiylar mukofotlanganligi, orden va medallar oltin, kumush, bronzadan tayyorlanganligi to'g'risida, shuningdek, u ushbu sohada tadqiqot olib borgan ko'plab olimlarning fikr va mulohazalarini ham tahlil etganligini ko'rish mumkin.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

O'zbekistonda ta'sis etilgan davlat mukofotlari bilan taqdirlashda yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar nomi bilan ataladigan adabiyot, san'at, me'morchilik, fan va texnika sohalariga oid davlat mukofotlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixan olib qaraganda, fan va texnika sohasida Beruniy nomidagi davlat mukofoti 1967-yilning 6-sentyabrida joriy etilgan edi. Davlat mukofoti ikki yilda bir marta berilib, taqdirlanuvchiga mukofot diplomi, faxriy nishon va pul mukofoti berilgan[2]. Beruniy nomidagi O'zbekiston SSR davlat mukofoti ayrim olimlarga yoki olimlar jamoasiga kommunistik qurilishga qo'shgan hissasi, mehnatkashlarning madaniyatini yanada yuksaltirishga yordam bergan hamda fan va texnikada muhim ishlari uchun berilgan. Bu mukofotga sazovor bo'lganlarga

“Beruniy nomidagi O‘zbekiston SSR Davlat mukofoti laureati” unvoni berilgan. 1967–1979-yillarda 184 kishi mazkur mukofot bilan taqdirlangan. Uning birinchi sohiblari esa M.T.O‘rozboyev, T.A.Sarimsoqov, S.Y.Yunusov va I.M.Mo‘minovlar bo‘lishgan. Mustaqillikka erishilganidan keyin Beruniy nomidagi mukofot – fan va texnika sohasi vakillariga berila boshladi. Ayrim olim yoki olimlar guruhiga ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shadigan, yuksak amaliy ahamiyatga molik bo‘lgan, respublika ilm-fani va texnikasining jahon yutuqlari darajasiga chiqishini ta‘minlaydigan tadqiqotlar, respublika ilmiy-texnika dasturlari, loyihalarini amalga oshirishda jiddiy natijalarga erishganlik, o‘z ko‘rsatkichlariga ko‘ra eng yaxshi jahon namunalari darajasidagi yoki ulardan yuqori bo‘lgan texnika, materiallar va texnologiyalarning yangi turlarini ishlab chiqqanlik, joriy etganlik va ishlab chiqarishda o‘zlashtirganlik, moddiy, tabiiy, mehnat resurslarining ko‘plab tejallishini, atrof-muhit muhofazasini ta‘minlovchi texnologiyalarni yaratganlik va joriy etganlik, O‘zbekistonning ma‘naviy merosi va uni rivojlantirish istiqbollari, jamiyatning madaniy va ijtimoiy taraqqiyotini chuqur anglashga ko‘maklashadigan ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi muhim yutuqlar, jamoatchilik tomonidan keng e‘tirof etilgan, uch va undan ortiq marta nashr qilingan, o‘zida yangi ilmiy g‘oyalarni mujassamlashtirgan, oliy o‘quv yurtlari uchun mo‘ljallangan original darsliklar uchun berilgan. Mukofot har 3 yilda Mustaqillik bayrami arafasida berilgan. Mukofotlanganlarga Abu Rayhon Beruniy tasviri tushirilgan faxriy nishon va tegishli guvohnoma topshirilgan. 1996-yilga qadar 407 kishi shunday mukofotga sazovor bo‘lgan[3]. Jumladan, 1996-yil uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqqanligi va joriy etganligi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasiga salmoqli hissa qo‘shganligi uchun E.T.Abdukarimovga, N.X.Jemilovga, E.G.Nazarovga – “Atom komplekslarining qattiq jism sirti bilan o‘zaro ta‘siri yangi texnologiyalar va priborlar (1979–1995 yillar davridagi tadqiqotlar sikli)” tadqiqoti uchun, S.S.Sodiqovga (marhum), V.A.Avtonomovga, A.M.Battalovga, K.M.Mahmadaliyevga – Tezpishar va serhosil, tola sifati yuqori bo‘lgan o‘rta tolali g‘o‘za navlari yaratgani va ishlab chiqarishga joriy etgani uchun, M.Kalendarovga, K.D.Davletboyevga, R.Yesemuratovga, A.To‘raboyevga – “Qoraqalpoq tilining izohli lug‘ati” (to‘rt jild) yaratganligi uchun, O.S.Mahmudovga – “Bolalarda o‘tkir ichak kasalliklari” ishi uchun mukofot berilgan[4].

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofoti – O‘zbekiston Respublikasining badiiy ijod sohasidagi eng oliy mukofoti bo‘lib, birinchi Prezident I.Karimov tashabbusi bilan 1989-yil 13-sentyabrda ta‘sis etilgan. Mukofot O‘zbekistonning madaniy hayotida katta voqea bo‘lgan, milliy qadriyatlar xazinasini boyitgan adabiyot, san‘at va me‘morlik sohasidagi eng yorqin va sermazmun asarlar uchun beriladi. Bu mukofot respublikada hamda chet ellarda

e'lon qilingan, alohida kitob shaklida nashr qilingan, ommaviy ravishda ijro etilgan, ko'rsatilgan va namoyish qilingan hamda keng jamoatchilik tomonidan yuqori baholangan badiiy asarlar, san'at na'munalariga taqdim etiladi. Davogar ishlar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat mukofotlari qo'mitasi tomonidan qabul qilinib, har bir asar uchun mukofot olishga talabgorlar soni 3 kishidan oshmasligi belgilangan. Mukofotlarni 1996-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan har 3 yilda bir marta Mustaqillik bayrami arafasida berish tartibi joriy qilingan. Mukofot puli har biri 200 ta eng kam oylik ish haqi miqdorida belgilangan. 1991-yilda 9 nafar ya'ni Abdulla Qodiriy (O'zbek adabiyotini rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Obid ketmon" romanlari uchun), Abdulhamid Cho'lpon (O'zbek she'riyatini rivojlantirishdagi xizmatlari, "Yana oldim sozimni" to'plami uchun), Abdurauf Fitrat (o'zbek dramaturgiyasini rivojlantirishdagi xizmatlari "Abulfayzxon", "Hind ixtilolchilari" dramalari uchun), Sherali Jo'rayev (konsert ijrochilik faoliyati uchun), Bahodir Jalolov (rassom), Sergo Sutyagin (bosh me'mor), Samijon Mo'yidinov (xalq ustasi), Murod Fozilov (me'mor, Qo'qon shahrida qurilgan madaniy tomosha binolari majmui uchun), Manzar Salim (Hindiston fuqarosi, Hamza, Oybek, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Zulfiya va boshqa o'zbek yozuvchilarining asarlarini urdu tiliga tarjima qilgani uchun) taqdirlangan. 1994-yilda 12 kishi (1 kishi xorijdan) taqdirlangan. 1996-yilda esa 4 kishi mukofotga sazovor bo'lib, ular Samarqand shahridagi Amir Temur homiyligida bunyod etilgan tarixiy obidalarni ta'mirlashda qadimiy noyob usullarni joriy etishga qo'shgan ulkan hissalar uchun Egamberdi Nurullayev, Matlabjon Maxmudov, Abduvoris Fattoyev va Rajab Yusupovga berilgan.

Adabiyot, san'at va me'morchilik bo'yicha Abdulla Qodiriy nomidagi davlat mukofoti badiiy ijod sohasidagi ilk oliy mukofot bo'lib, 1991-yil 6-fevralda ta'sis etilgan. Ushbu mukofotning ta'sis etilishi mustaqillik yo'lida jonini fido etgan o'zbek adibining xotirasini tiklabgina qolmay, millat g'ururi, sha'ni, ma'naviyati uchun kurashgan ajdodlarga nisbatan ko'rsatilayotgan xalq ehtiromining namunasi bo'ldi. Bu mukofot adabiyot, san'at va me'morlik sohasida yaratilgan, milliy istiqlool g'oyalarini yorqin badiiy shakllarda aks ettirgan, O'zbekistonning buyuk tarixi va hozirgi yuksalish jarayonlarini haqqoniy obrazlar orqali gavdalantirgan hamda keng jamoatchilik tomonidan tan olingan yetuk asarlar uchun berilgan. Mukofotga so'nggi to'rt yil mobaynida yaratilgan, e'lon qilingan, alohida kitob shaklida nashr etilgan, ko'rgazmaga qo'yilgan, mamlakatda ommaviy ravishda nashr va ijro etilgan adabiyot, musiqa, teatr-sahna, kinematografiya, televideniya asarlari qabul qilingan. Bir mukofotga talabgorlar soni 3 kishidan oshmasligi lozim. Mukofotga sazovor bo'lgan ijodkorlarga yorliq va faxriy nishon topshirilib, 80 ta eng kam oylik ish haqi miqdorida mukofot puli belgilangan va mualliflar

jamoasi o'rtasida (agar ular bir ijodkordan ko'p bo'lsa) teng ulushlarda taqsimlangan. 1997-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan, har uch yilda bir marta Mustaqillik bayrami arafasida beriladigan bo'ldi[5]. 1994-yil Tog'ay Murod – "Otamdan qolgan dalalar" romani uchun, Ilhom Jabborov va Kamol Jabborovga – Toshkent shahrida o'rnatilgan Amir Temur haykali uchun hamda L.Abdullayev va A.Mirzayev tasviriy san'at sohasi uchun taqdirlangan[6]. 1997-yil uchun Mustafo Bafojevga 1993–1996-yillarda yaratilgan "Ulug'bek burji", "Nodira", "Moziydan nur" musiqasi va istiqlolni tarannum etuvchi qo'shiqlar turkumi uchun, Anor Nazarovga 1993–1996-yillarda yaratilgan istiqlol ruhi bilan yo'g'rilgan qo'shiqlar va musiqalar turkumi uchun berilgan[7].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi adabiyot, san'at va me'morchilik sohasida davlat mukofotlari qo'mitasi Abdulla Qodiriy va Kamoliddin Behzod nomidagi davlat mukofotlariga eng yaxshi asarlar tanlovi o'tkazishni Vazirlar Mahkamasi bilan kelishib amalga oshirganligini ta'kidlash kerak[8]. Kamoliddin Behzod nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti – adabiyot, san'at va me'morlik sohasidagi davlat mukofotlaridan biridir. 1997-yil 23-yanvarda ta'sis etilgan bo'lib, sharq uyg'onish davri yetuk san'atkori, buyuk miniatyurachi musavvir Kamoliddin Behzod nomi bilan yuritiladi. Mukofot tasviriy va amaliy san'at, xalq hunarmandchiligi sohasida yaratilgan, milliy istiqlol g'oyalarini yorqin badiiy shakllarda aks ettirgan, O'zbekistonning buyuk tarixini va hozirgi yuksalish jarayonlarini haqqoniy obrazlar orqali gavdalantirgan va keng jamoatchilik tomonidan tan olingan yetuk san'at asarlari uchun berilgan.

Mukofotga so'nggi to'rt yil mobaynida yaratilgan, ko'rgazmaga qo'yilgan yoki boshqa tarzda e'lon qilingan monumental tasviriy san'at, me'morlik-badiiy ta'mirlash va haykaltaroshlik asarlari ko'rib chiqish uchun qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining boshqa davlat mukofotiga ilgari sazovor bo'lgan asarlar bu mukofotga tavsiya etilmaganligini qayd etish lozim[9]. Bir mukofotga talabgorlar soni 3 kishidan oshmasligi lozim. Mukofotni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan har uch yilda bir marta Mustaqillik bayrami arafasida berish tartibi joriy qilingan. Mukofot puli har biri 80 ta eng kam oylik ish haqi miqdorida belgilangan va mukofot sovrindorining nishoni ko'krakning o'ng tomoniga taqilishi belgilangan. 1997-yilda Toir Boltaboyev, Xurshid Nazirov va G'ayrat Kamolov, Anvar Ilhomov va Baxtiyor Rahmonberdiyev, Raimberdi Matchonovlar mukofotga sazovor bo'lishgan[10].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 14-martda 94-sonli "Tarixiy shaxslar nomidagi va boshqa mukofotlarni ta'sis etishni tartibga solish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, ulug' ajdodlarning tarixiy merosini o'rganish maqsadida buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Abdulla Qodiriy, Zulfiya nomidagi davlat mukofotlari ta'sis

etilib fan, madaniyat, san'at, adabiyot rivojiga salmoqli hissa qo'shayotgan ijodkorlar taqdirlandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasida Al-Xorazmiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Habib Abdullayev nomidagi mukofotlar joriy etilib, bu mukofot bilan sohaning munosib vakillari taqdirlangan[11].

Namangan viloyati hokimligida O'zbekiston Yoshlarining "Kamolot" jamg'armasi Namangan viloyat bo'limining yosh ijodkorlarga beriladigan Boborahim Mashrab nomidagi mukofot[12], Jizzax viloyati hokimligida Sharof Rashidov, Hamid Olimjon, Bibixonim nomlaridagi mukofotlar joriy etilgan[13].

Shu o'rinda muhim bir jihatni qayd etish kerakki, sohadagi ayrim tashkilotlar tomonidan masalaning mohiyatini to'liq anglamasdan mas'uliyatsizlik bilan tarixiy shaxslar nomida turli mukofotlar ta'sis etish hollari ro'y berayotganligi, ulug' ajdodlarni mo'tabar nomlarini, ularning tarixiy va milliy ahamiyatini muayyan bir hudud doirasida cheklashdek noxush ko'rinishlarga yo'l qo'yilayotganligi, ba'zi o'rinsiz tashabbuskorlik asosida qabul qilinayotgan qarorlar mukofotlarning rag'batlantiruvchi mohiyatini buzilishiga - maydalashib ketishiga sabab bo'lish holatlari ham kuzatildi[14]. Natijada tarixiy shaxslar nomidagi mukofotlar hamda ular bilan taqdirlash jarayonlari ma'lum me'yorlar asosida tartibga solindi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, 2006-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod va Abdulla Qodiriy nomidagi davlat mukofotlari tizimida o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu mukofotlar umumlashtirilgan holda ularning o'rniga O'zbekiston Respublikasining fan va texnika, adabiyot, san'at va me'morchilik sohasidagi davlat mukofotlari ta'sis etildi. Bu mukofot 2007-yildan boshlab har ikki yilda bir marta berilib, fan va texnika, adabiyot, san'at va me'morchilik yo'nalishlarida jami oltita – uchta birinchi va uchta ikkinchi darajadan iborat bo'ldi[15]. Davlat mukofotlariga ilmiy tadqiqotlari, adabiy va badiiy asarlari matbuotda e'lon qilingan, texnika va texnologiyalar sohasidagi ishlari ishlab chiqarishga joriy etilgan shaxslar tavsiya etilishi mumkin[16]. Musiqa, teatr, kino, tasviriy va boshqa xil san'at asarlarining mualliflari ushbu asarlar konsertlar, ko'rgazmalar, teatrlar, radio va televideniya orqali e'lon qilinib, keng jamoatchilikka tanishtirilganidan keyin, me'morchilik asarlari bo'yicha obyektlar esa foydalanishga topshirilganidan so'ng bir yil o'tgach davlat mukofotlariga tavsiya etilishi mumkinligi belgilandi.

XULOSA

Faleristika sohasi qadimdan rivojlangan bo'lib, sohaviy jihatdan turli ko'rinishlarda namoyon bo'lgan. Ushbu soha dastlab Yevropa davlatlarida o'rganilgan bo'lib, insonlarni taqdirlash ishlari ham shu hududlarda birinchilardan amalga oshirilgan edi. O'zbekiston hududida dastlabki faleristik belgilarning paydo

bo'lishi Rossiya imperiyasi qo'shinlarining kirib kelishi bilan bog'liq (ungacha bo'lgan davrda mukofotlash va taqdirlash ishlarida faleristik belgilardan foydalanilmagan). O'zbekiston SSRda asosiy taqdirlash vositasi bo'lgan faxriy unvonlar sanoat, qurilish, transport, aloqa, qishloq xo'jaligi, o'rmon, suv, baliqchilik xo'jaligi, fan, texnika, ishlab chiqarishni tashkil etish, sog'liqni saqlash, xalq maorifi, sport, madaniyat, adabiyot, san'at, savdo, aholiga kommunal-maishiy xizmat ko'rsatish hamda mehnat faoliyatining boshqa sohalari kesimida berib borilib, ularning soni 32 tani tashkil etgan.

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng, tasvirlarida milliylik aks etgan yangi davlat mukofotlari, ya'ni turli kasb va sportdagi muvaffaqiyatlari uchun muntazam taqdirlash tizimi yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan bir qatorda chet el fuqarolari shu bilan bir qatorda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mukofotlanishi, taqdirlash shaxsning vafotidan keyin ham amalga oshirilishi mumkinligi belgilandi.

Davlat mukofotlari bilan taqdirlashda yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar nomi bilan ataladigan adabiyot, san'at, me'morchilik, fan va texnika sohaslariga oid davlat mukofotlaridan ham foydalanish yo'lga qo'yilgan. Davlat mukofotlariga ilmiy tadqiqotlari, turli xil ko'rgazmalar, teatrlar, radio va televideniya orqali e'lon qilinib, keng jamoatchilikka tanishtirilganidan keyin, me'morchilik asarlari bo'yicha obyektlar esa foydalanishga topshirilganidan keyin bir yil o'tgach davlat mukofotlariga tavsiya etilishi tegishli qonun hujjatlarida belgilab berilgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 535.
2. Ўзбек Совет Энциклопедияси. 14 том. – Тошкент: ЎзСЭ Бош редакцияси, 1980. – Б. 606.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент, 2000. – Б. 723-724.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996. 8-сон. – Б. 43-44.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент, 2000. – Б. 25-26.
6. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994. 11-12-сон. – Б. 38-39.
7. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997. 8-сон. – Б. 81-82.
8. О'зМА, М-37-fond, 1-ro'yxat, 5426- yig'majild. 40-varaq.

9. Ўзбекистон Республикасининг Давлат мукофотлари. Қонун ҳужжатлари. / Тузувчи: Ш.Н.Рўзиназаров. – Тошкент: Адолат, 2001. – Б. 210-213.
10. Karimjonov J. Faleristika sohasining shakllanishi: retrospektiv nazar / Oriental Journal of Social Sciences. <https://www.supportscience.uz/index.php/ojss> Pages: 227-232.
11. О‘зМА, М-37-fond, 1-ro‘yxat, 4449- yig‘majild, 84-85-varaq.
12. О‘зМА, М-37-fond, 1-ro‘yxat, 4449- yig‘majild, 76-77-varaq.
13. О‘зМА, М-37-fond, 1-ro‘yxat, 4449- yig‘majild, 81-83-varaq.
14. О‘зМА, М-37-fond, 1-ro‘yxat, 4449- yig‘majild, 73-varaq.
15. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2006. 7-сон. – Б. 59-60.
16. Mukhtorjonovich, K. J. (2021). Creation of the legal basis of state awards in independent Uzbekistan. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2031-2037.
17. Karimjonov J. Sovet davrida O‘zbekiston SSRda taqdirlash jarayonlari va uning o‘ziga xos jihatlari / Oriental Journal of History, Politics and Law. <https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl> Pages: 165-170.

Каримжонов Ж. М.

PhD., старший преподаватель кафедры «Новейшая история Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
expert0almazniy@gmail.com

УЧРЕЖДЕНИЕ НАГРАД ИМЕНИ ИСТОРИЧЕСКИХ ДЕЯТЕЛЕЙ УЗБЕКИСТАНА: ПРОЦЕССЫ НАГРАЖДЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются награды, учреждённые во имя исторических деятелей, сыгравших важную роль в истории Узбекистана, процессы их награждения, их специфические аспекты, анализируются знаки наград, виды наград, статистика награждённых лиц, правовые основы награждения.

Ключевые слова: Узбекистан, звание, знак, наука, культура, искусство, литература, Абу Райхан Беруни, Алишер Навои, Камолитдин Бехзод, Абдулла Кадири.

Karimjonov J. M.

PhD., senior lecturer at the department of «Modern history of Uzbekistan»
National University of Uzbekistan
expert0almazniy@gmail.com

ESTABLISHMENT OF AWARDS NAMED AFTER HISTORICAL FIGURES IN UZBEKISTAN: AWARDING PROCESSES

ABSTRACT

This article examines the awards established in the name of historical figures who played an important role in the history of Uzbekistan, the awarding process, and its specific aspects. It also analyzes the award symbols, types of awards, statistics of awardees, and the legal basis for awarding.

Keywords: Uzbekistan, title, insignia, science, culture, art, literature, Abu Rayhan Beruni, Alisher Navoi, Kamoliddin Behzod, Abdulla Qodiri.